
MAHALLALARDA IFTORLIK TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA

Davlatimiz rahbarining “Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o’tkazish to’g’risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Toshloq tumanida sektor rahbarlari tashabbusi bilan mahallalardagi kam ta’minlangan oilalar holidan xabar olinib, ro’zadorlar uchun iftorlik dasturxonları yozilmoqda. Xususan, 2-sektor hududidagi “Zarkent” MFYda o’tkazilgan iftorlik tadbirida mahallada istiqomat qilayotgan nuroniyalar hamda kam ta’minlangan ijtimoiy himoyaga muhtoj oila vakillari ishtirot etdi. Iftorlik dasturxonida ro’zadorlar duoga qo’l ochib, yurtimizga tinchlik, elimizga omonlik, xonadonlarga qutbaraka so’rashdi, ko’rsatilgan hurmat-ehtirom uchun minnatdorlik bildirishdi.

2023-04-08 08:32:23